



## IMPROVING THE SENSE OF CIVIC DUTY IN ELEMENTARY SCHOOL STUDENTS BASED ON INTERACTIVE METHODS

Jovliyeva Gulira'na Gafurovna

Theory and Methodology of Education and Training

Primary Education, 2nd Year Master's Student

### Abstract

Instilling in the minds of primary school students that they are citizens, that they are dependent on the state, that they have duties and responsibilities to their parents and their country. This is to improve the sense of citizenship and duty based on interactive methods.

**Keywords:** interactive methods, discussion, citizen, duty, sunflower, brainstorming.

Boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun fuqarolik va burch tuyg'usi endi yuragiga singib kirayotgan tushunchalardan hisoblanadi.O'qituvchi o'z mahorati ,ish tajribasi,samarali mehnati natijasida bola ongida bunday tuyg'ularni uyg'ota olishi kerak.

Fuqaro so'zi Vatanning chin farzandi, fidoyi inson ma'nolarini ham anglatadi.Fuqarolik jismoniy shaxsning ma'lum bir davlat bilan huquqiy bog'lanishidir.Bu bog'lanish fuqaroning tegishli davlatga nisbatan bo'lgan huquq va burchlari hamda uning o'sha davlat tomonidan himoya qilinishini ifodalaydi. Insoniyat tarixida o'z fuqarolik burchini hayotining ma'no-mazmuni deb bilgan, ona Vataniga munosib bo'lish yo'lida qahramonlik ko'rsatgan zotlar ko'p bo'lgan.Boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun bunday mardlik ,vatanparvarlik tuyg'ularini interfaol metodlar asosida ko'rsatib berish dars mustahkam va esda qolarli bo'lishini ta'minlaydi.Interfaol metodlar – ta'lim beruvchi va ta'lim oluvchining o'zaro faoliyatini ta'minlovchi,ularni faollikka o'rgatuvchi,mustaqlil fikrlashga undovchi va bilim olishga bo'lgan motivatsiyani kuchaytiruvchi metodlar hisoblanadi. Bugungi davrda ta'lim sohasida eng muhim vazifalar eskirgan tamoyillar va bir xil qolipdagi o'qitish metodlaridan voz kechib, zamon talablariga mos keladigan yangi yo'naliishlarni,usullarni va metodlarni izlashni taqozo etmoqda.

O'qitishning eng samarali yo'li - mashg'ulotlarda o'quvchilarining haqiqatni bilishga, fikrlashga, erkin muloqotga, hamkorlikka intilishidir. Darslarda bu ruh bo'lmasa, bunday mashg'ulotlar jonsiz, zerikarli va samarasiz bo'ladi.

Zamonaviy ta'limni tashkil etishga qo'yiladigan muhim vazifalardan biri ortiqcha ruhiy va jismoniy kuch sarf etmay, qisqa vaqt ichida yuksak natijalarga erishishdir. Qisqa vaqt orasida muayyan nazariy bilimlarni o'quvchilarga yetkazib berish, ularda ma'lum faoliyat yuzasidan ko'nikma va malakalarini hosil qilish, ular tomonidan egallangan bilim, ko'nikma hamda malakalar darajasini baholash o'qituvchidan yuksak pedagogik mahorat hamda ta'lim jarayoniga nisbatan texnologik yondashuvni talab etadi.Boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun fuqarolik ,burch tuyg'ularini o'ziga xos zamonaviy interfaol metodlar bilan darsni tashkil etish va ta'lim jarayoni yuksak o'rinda ekanligini ko'rishimiz mumkin.



Masalan „munozara“ metodi asosida bir nechta tarixiy shaxslarni aytib o‘tish mumkin. Bu metod o‘quvchi tasavvurida vatani uchun kerakli shaxs bo‘lishga harakat va burch, vazifa, mas‘uliyat hislarini uyg‘otadi. Masalan,

Siz jasur fransuz qizi Janna d’Ark haqidagi kitoblarni o‘qigan, filmlarni ko‘rgan bo‘lishingiz mumkin. Uni orleanlik qiz deb ham ataydilar. U yosh bo‘lishiga qaramasdan, Orlean shahrini inglizlardan ozod qilishga, taxtdan chetlashtirilgan fransuz qirolini o‘z o‘rniga tiklashga qaror qiladi. Uning qalbida jo‘sh urgan fuqarolik hissi, vatanparvarlik tuyg‘usi shunga da‘vat etadi. U akalari bilan birga yurtga sodiq insonlarga bosh bo‘lib, dushmanga qarshi mardona jang qiladi va Orlean shahrini ozod etadi.

Bu jasoratli qizning xalq ichida obro‘-e’tibori ortib borayotganidan sarosimaga tushgan yov lashkarboshilari va mutaassib din peshvolari uni jodugarlikda ayblab, cherkov nomidan sud qilib, o‘tda yondirishadi.

Janna d’Arkning buyuk jasorati siz yaxshi biladigan To‘maris momomizning qahramonligiga o‘xshab ketadi.

Massagetlar qabilasining boshlig‘i bo‘lgan To‘maris Eron shohi Kirning kuchli lashkariga qarshi jang qiladi. Kir ochiq urush qilishdan qo‘rqib, hiyla ishlataldi. To‘marisning o‘g‘lini mast qilib, keyin asir oladi. Bundan g‘azabga to‘lgan To‘maris makkor yovni ochiq jangga chaqiradi. Qaqshatqich urushda To‘maris dushman ustidan g‘alaba qozonadi.

Bunday misollar, millati, tili va dinidan qat‘i nazar, dunyodagi barcha insonlarning muqaddas tuyg‘ulari o‘zaro o‘xshash ekanini ko‘rsatadi.

 **Davlat o‘z zimmasiga fuqarolarning haq-huquqlari, hayotining daxlsizligini ta‘minlash bo‘yicha muayyan majburiyatlarni oladi. Shuningdek, fuqarolar ham davlatga xizmat qilish, uning mustaqilligi, moddiy va ma’naviy boyliklarini himoya qilish bo‘yicha tegishli majburiyatlarga ega bo‘ladi..**

Ta‘lim jarayonida boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi o‘quvchi shaxsiga mos metodlarni qo‘llay olmasa, o‘quvchi shaxsini o‘zgartirish uchun sharoit yaratilmasa, uning tarbiyasida chekinish yuz beradi Ayni paytda o‘qituvchi oldida mas‘uliyatli va mashaqqatli vazifa –o‘quvchilarni erkin fikrlashga o‘rgatish hamda ijodiy fikrlashni shakllantirish turadi. Ta‘lim jarayonida amalga oshirilayotgan o‘zgarishlar o‘sib kelayotgan yosh avlodni tarbiyalash, ularga ta‘lim berish jarayonini sifat jihatidan takomillashtirishni talab qilmoqda. Ilmiy-texnik taraqqiyot jadallik bilan rivojlanayotgan hozirgi davrda mehnat bozorida raqobatbardosh, mustaqil fikrlaydigan kadrlar tayyorlash uchun o‘quvchilarning ijodiy qobiliyatini o‘stirish muhim ahamiyatga ega va rivojlangan mamlakatlar tajribasida isbotlangan.

Erkin fikrlashga o‘rgatish zarurati, boshlang‘ich sinf o‘quvchilari uchun “kungaboqar” interfaol metodi asosida fuqarolar uchun qanday burchlar borligini ko‘rsatib berishi mumkin. Masalan, markazda “burch” so‘zi, atrofida esa kungaboqar shaklida doirasimon shakllar tarzida boshlang‘ich sinf o‘quvchilari ongiga burchlari nima ekanligi haqida tasavvur uyg‘onadi:

- 1 –kungaboqar shakliga- a‘lo o‘qish
- 2-kungaboqar shakliga – ustozni hurmat qilish burchi
- 3-kungaboqar shakliga – vatani oldidagi burch
- 4 –kungaboqar shakliga- ota-onasi oldidagi burch



5-kungaboqar shakliga - do'stlarni hurmat qilish burchi.

Bu metod ham ancha samara beradigan interfaol metod hisoblanadi.

Shuni ta'kidlash lozimki, o'quvchi erkin va mustaqil fikrlashning usul va yo'llarini egallaganda o'quv materialini tez idrok etadi, puxta o'zlashtiradi. Dars mashg'uloti bilan qanoatlanmay qoladi. Ayni paytda fikrlashga o'rganmagan o'quvchi fikrlaydigan sinfdoshi oldida ojizligidan iymanadi, iztirob chekadi, turli salohiyatdagi o'quvchilaridan tashkil topgan guruhda ishslashdan esa o'qituvchi tez toliqadi. Bunday holatlar esa sind o'quvchilarining tayyorgarlik darajasi, qobiliyatiga qarab guruhashga taqozo qiladi.

O'quvchilar ishining yuqori samaradorligini asosiy sharti, tashabbuskorlik va faolligini vujudga keltirish ular faoliyatlarini vujudga keltirish ular faoliyatlarini baholashdan iboratdir. Bunday vaziyatda o'qituvchi o'z malakasini ,bilimini ko'rsata olishi,metodlardan oqilona foydalanishi lozim.

Boshqa tomondan,bilim darajasi, harakat qila bilishlik va o'quvchilar sifati baho bilan ifodalansa, pedagogik mexnat sifatini ifodalaydi, bu o'qituvchi faoliyati natijasi,uni vazifani qo'ya bilishligi,manba va metodlar xazinasini bilishi, o'quv jarayonini ongli tashkil eta bilishdir. Bolaning tafakkuri, ijodiyligi, tanqidiy va mantiqiy fikrlashini rivojlantirishga qaratilgan ta'lim tizimida boshlang'ich sindfa o'qiyotgan har bir o'quvchi shaxsiga bir qancha zamonaviy, shu jumladan, uning muvaffaqiyatli ijtimoiylashuvi nuqtayi nazaridan yangi talablarni qo'yadi.

## Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Abdullaeva H. A., Bikbaeva N.U. va boshq. Boshlang'ich ta'lim konstepstiyasi. Boshlang'ich ta'lim. 1998. 6 –son, -12 – 24 betlar.2. Abdurahmanova N., Jumaev M., O'rinoebova L. Boshlang'ich sinflar uchun matematikadan didaktik materiallar. -T.: «Istiqlol», 2004, - 65 bet.
2. Azizzxo'jaeva N. Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat.-T.: «O'qituvchi», 2003. – 23 – 48 bet.
3. Abdieva D. Soros bilan hamkorlik – yutuqlar kaliti. Boshlang'ich ta'lim. 2003. 2-son, 17- 22 bet.
4. Bo'ronova Sh. Ona tili darslarida interfaol metodlardan foydalanish. Uzluksiz ta'lim. 2004. 3-son. - 34-38 betlar.6. Bikbaeva N., Yangiboeva E. 2-sinf matematika darsligi. -T.: «O'qituvchi», 2008. - 112 bet.
5. MUBINAKHON, IKRAMOVA, and IKRAMOV MUHAMMAD ANASKHON. "The Importance of Using the Ict to Increase the Efficiency of Education." JournalNX 7.1: 106-108.
6. Ikromov, Muhammadanasxon Xakimjon Ogli, and Zulhayoxon Muhtorjon Qizi. "MARKAZIY OSIYODA GRAFIKANING RIVOJLANISHIGA HISSA QO'SHGAN BUYUK OLIMLAR." Central Asian Academic Journal of Scientific Research 2.5 (2022): 627-630.
7. Khaydarovich, A. A., & Muhammedovich, S. U. (2022). THE ROLE OF RISHTON SCHOOL OF CULTURE IN THE DEVELOPMENT OF APPLIED ART ON THE BASIS OF NATIONAL AND MODERN TENDENCIES. Academicia Globe: Inderscience Research, 3(05), 22-26.
8. Абдуллаев, А. Х. (2019). FEATURES OF DRAWING ACTIVITIES BASED ON IMAGINATION AND MEMORY. Scientific Bulletin of Namangan State University, 1(3), 340-343.